



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sa'dulla Matyakupov¹
Razzaqova Muqaddas²

¹ Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent..
sadulla.yoqub@gmail.com

² Nukus shahri "Progress" ta'lim va rivojlantirish markazi o'qituvchisi
razzakovamuqaddas@gmail.com

SHE'RIYATDA DIALOG YARATISHDA BADIY MAHORAT VA IJODIY INDIVIDUALLIK

Annotatsiya

Maqolada hozirgi o'zbek she'riyatida dialog yaratish va uni vujudga keltirgan omillar, tasvir va ifoda uyg'unligi, muloqot shakllaridan foydalanishda ijodkor mahorati, hayotiy va badiiy haqiqat muammosi kabi masalalar ilmiy tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: dialog, muloqot, tasvir, ifoda, badiiy mahorat, obraz, shakl va mazmun.

Аннотация

В статье предоставляется научный анализ факторов, создающих диалог в современной узбекской поэзии, и факторов, создающих его, гармонии образа и выражения, творческих способностей в использовании форм общения, проблемы жизни и художественной реальности.

Ключевые слова: диалог, общение, образ, выражение, художественное мастерство, образ, форма и содержание.

Annotation

The article provides a scientific analysis of the factors that create dialogue in modern Uzbek poetry, and the factors that create it, the harmony of image and expression, creative abilities in using forms of communication, the problems of life and artistic reality.

Keywords: dialogue, communication, image, expression, artistic skill, image, form and content.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda adabiyotning barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, she'riyatda ham shakl va mazmun jihatdan o'zgarish hamda yangilanishlar bo'y ko'rsatmoqda. Bu narsa birinchi galda inson va uning taqdiri talqini borasida namoyon bo'lib, bu kabi muammolarni badiiy tadqiq etishda o'ziga xos shakllar, ifoda usullari vujudga kelmoqda.

Ta'kidlash kerakki, poetik tilda uslubiy o'ziga xoslik shartli mohiyatga yo'naltiriladi. Unda ijodkor ichki kechinmasi va muayyan davr yoki ma'lum bir jarayon ziddiyati munosabatga kirishadi. Nisbatan yuksak va quyi uslub tamoyillarining birikuvi notiqlik ko'rsatmasini hosil qiladi. Til aloqadorligi bilan bog'liq umumiy xossalardan o'sib chiqadigan nutqiy malaka rivoji ichki (obrazlar tizimi) va tashqi (badiiy mazmun) shakllar uyg'unligini vujudga keltiradi. Adabiyotshunos H.Umurov ta'kidlaganidek, «Badiiy dialog holatni, o'y-xayolni talqin qilmog'i – uning ochiq mazmunidan yashirin mohiyati sari borishga kitobxonni «majbur» qilishi – bosh talab» [1, 66] ekan, unda qahramon xarakteri, ruhiyati hamda manfaat-ehtiyojlarini ixcham tarzda ifodalash imkoniyati ortadi. Nutq shakli tasvir va tahlil hamda talqin madaniyatini birlashtiradi.

Ma'lumki, ijodiy prinsiplarga ko'ra badiiy nutq muntazam yangilanib turadi. U an'anaviy janr tizimiga yangilik kiritish bilan bir qatorda lirik ifodani turlicha muhokama etishga zamin yaratadi. Zero, lirik qahramon «men»i borliqning umumlashgan ko'rinishi sifatida aks etadi. Shu ma'noda, muayyan makon va zamonda gavdalanadigan tasvir miqyosi umumbashariylik kasb etadi. Bu jarayonda

hayotiy-maishiy asosdan badiiy talqinga o'tish tarzi tuyg'ular nazoratini o'rnatishga imkon tug'diradi, ong boshqaruvi esa badiiy niyat va maqsadni ro'yobga chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan she'riyatda muloqot shakllari badiiy ifodani mantiqan kuchaytirish bilan birga bir xil yo'sindagi tasvirlarga barham berishga intiladi.

Adabiy tilning umumiy mezonlariga nisbatan qarama-qarshi munosabat hosil qiladigan badiiy muloqot tizimida so'z g'oyaviy mohiyat kasb etadi. Vaholanki, mavhum tushunchadan aniq obraz yaratish jarayoni ichki va tashqi uyg'unlikni ta'minlagan holda tasvirning mazmundorlikka yo'naltirilganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Undagi ziddiyat badiiy nutq maydoni murakkabligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Negaki, muallif va qahramon ovozi she'riy muhokamada inkor-tasdiq ziddiyatini sodir etadi. Unda ijodiy jarayon hamda ijodkor ruhiyati bir-birini to'ldiruvchi mazmun-mohiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Lirik asarlarda dialog muammosiga bag'ishlangan rus, ozarbayjon, qozoq va boshqa xalqlar adabiyotshunosligida bir qator ilmiy-tadqiqotlar yaratilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham so'nggi yillar she'riyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'lami, miqyosi, ilmiy-nazariy saviyasi bu borada yaxshi samaralarga erishayotganligidan dalolat beradi. Ularda hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy tafakkurning yangilanishi, badiiy-uslubiy izlanishlar kabi masalalar ilmiy jihatdan umumlashtirilgan. Bundan tashqari, zamonaviy o'zbek she'riyatida tasviriy vositalar va til badiiyati, ma'naviy-axloqiy munosabatlarning badiiy talqini, milliy o'ziga xosligi kabi masalalar bevosita ijodkor shaxsiyati, ijodiy tabiati, fikrlash madaniyati bilan sinkretik aloqadorlikda o'rganiladi.

O'zbek she'riyati turli aspektlarda qay darajada o'rganilgan bo'lmasin, zamonaviy o'zbek she'riyatida dialog yaratish mahorati muammosi hali ochilmagan qirra sanaladi. Bu narsa bizga ayni shu muammoni maxsus tadqiq etishga zamin hozirlaydi.

Istiqlol davri o'zbek she'riyatining turli qirralari bo'yicha adabiyotshunosligimizda bir qator monografik tadqiqotlar yaratilib, ularda badiiy

psixologizm, obraz va ritm munosabati, hayotni poetik talqin etish taomillari, badiiy xususiyatlari, ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon, xalqona poetik tafakkur, uslubiy izlanishlar, modern she'riyat poetikasi, she'riy turkum tabiati kabi bir qator muammolar maxsus tadqiq qilindi.

She'riyatda dialog masalasi rus va boshqa xalqlar adabiyotshunosligida ham muayyan darajada tadqiq etilib, xususan, T.Berdnikova, A.Austin, Z.Xesarbani, M.Yaxyapur, T.Koshemchuk, N.Kenjeg'arayevlarning dissertatsiya va maqolalarida ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi adabiyot va san'at, tarix, ma'naviyat masalalari yuzasidan ilgari surilgan nazariy fikrlar metodologik asosni tashkil etadi. Maqolada belgilangan masalalarni tadqiq etishda jahon, rus, o'zbek adabiyotshunosligining lirik janrlar o'ziga xosligi bilan bog'liq nazariy qarashlariga, xususan, I.Sulton, O.Sharafiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, N.Karimov B.Sarimsoqov, N.Rahimjonov, U.Hamdami singari olimlarning tadqiqot va maqolalariga suyanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi kunda adabiyot, xususan, she'riyatda ijodkorlarning insonni tushunish va tushuntirishida turli xil tasvir va usullardan samarali foydalanilmoqda. Bu borada she'riyatda dialoglar qo'llash hamda u orqali olam va odam, ya'ni inson – tabiat – jamiyat muloqotlari turli xil shakllarda talqin etilmoqda.

Serqirra ijodkor Ulug'bek Hamdamning «Eski dunyo va yangi men» saylanmasidagi she'rlarni o'qib, yuqoridagi fikrlarning amaliy tasdig'ini kuzatamiz. Unda shoirning tabiat va jamiyat, olam va odam munosabatlarini dialogik shaklda badiiy talqin qilish orqali o'zini o'ylantirgan dard va nolalari badiiy ifoda qilinadi. Kitobdagi «Shunday yashasam» deb nomlangan she'rda quyidagi satrlarni ko'ramiz:

Dunyoga kelganda yo'q edi dushman,

Dedim: hama odam habibdir menga.

Umrimning yarmida tegramga boqsam,

Do‘st degan qolmamish, g‘anim son mingta...

Olohim bersa-yu shunday yashasam,

Barchasi teskari aylanib qolsa:

Mo‘ysafid chog‘imda nazar tashlasam,

Dushman hech ko‘rmasam, hama do‘st bo‘lsa... [2, 210].

Monologik talqin hosilasi sifatida vujudga kelgan mazkur she‘rda o‘z-o‘ziga nisbatan taftish, tavsif, tahlil va muhokama aks ettiriladi. Ong va sezim munosabatini shakllantiradigan lirik talqinda hissiy kechinma yetakchi omilga aylanadi. Shu ma‘noda, nutqiy muloqot shakllarida badiiy maqsad va talab o‘ziga xosligi alohida ahamiyat kasb etadi.

E‘tirof etish lozimki, mazkur she‘r Sharq mutafakkiri Abdurahmon Jomiyning «Yodingdami, aytchi, sen tug‘ilgan on» deb boshlanuvchi hikmati bilan hamohangdek taassurot uyg‘otadi. Ehtimol bu o‘xshashlik badiiy adabiyotda mavjud motivning, shuningdek, insoniyat uchun mushtarak ne‘mat sanalgan Hayotga bo‘lgan qarash va uning talqini bilan bog‘liqdir. Zero, Jomiy hikmati bilan U.Hamdam she‘ri ifoda uslubi, g‘oyaviy mazmun, estetik ta‘sir, ritmik ohang jihatidan mutanosiblik kasb etadi. Har ikkalasida ham ijodkorning hayotga bo‘lgan qarashi, insoniy fazilat va illatlar, umr va uning mohiyati ixcham shaklda tasvirlanadi.

«...Inson degani qorishiq kuylar, ohanglar, shakllar ichida yashaydi. Bu turfalik uning botinidan kamalak ranglari kabi o‘rin egallagan. Kishi ijodkor bo‘lib shakllandimi, demak, olamning ana shu hamma ranglarini ko‘rishi, ularning birontasiga xiyonat qilmasligi kerak» [2, 5-6], deya e‘tirof etgan U.Hamdam she‘rlarida o‘quvchi o‘ziga turli xil savollar qo‘yish bilan birga hayotda o‘zi amal qilayotgan ishlariga muayyan javoblar topadi.

Ko‘rinadiki, she‘riyatda dialog va monolog ifoda aniqligini yetakchi usul darajasiga ko‘taradi. Semantik-sintaktik munosabatlar tizimi nutqiy ta‘sirning

ijtimoiy amaliyotini ancha teranlashtiradi. E'tiborli jihati shundaki, mazkur holatda ijodkor individual uslubi orqali namoyon bo'lgan ritorik shakl badiiy idrokning kengayishiga zamin hozirlaydi.

U.Hamdarning «G'iybatchiga» deb nomlangan she'rida ham oddiy va ixcham satrlar orqali insonga xos bo'lgan illat va uning oxiratdagi oqibatlarini o'ziga xos tarzda ifoda qilinadi. Unda shoir badiiy kechinmasi o'quvchiga o'z hayotini taftish qilish, mazkur she'rdagi xulosa (savol)ga javob izlash masalasini qo'yadi. Albatta, mazkur satrlar ham insoniyat uchun azaliy va adabiy muammo bo'lgan ma'naviy-axloqiy masalalardan birini o'zida aks ettirgan.

Uni g'iybat qilding, rozi bo'ldi u,

Meni g'iybat qilding, rozidirman men.

Ammo aytgil inson, umr bitdi-ku,

Shunday kechmishingdan rozimisan sen? [2, 215].

Saylanmaga kiritilgan ko'plab she'rlardagi dialogik ifodalar inson va unga berilgan eng oliy ne'mat, ya'ni umr mohiyatini anglatishga qaratiladi. Bunda shoir o'z ko'nglida kechgan tuyg'ularni badiiy tasvirlashda she'rlardagi har bir holatga mos ifodani topa olgan. Zero, adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov e'tirof etganidek, «Badiiy kechinma tarkibida his va aqlning uyg'unligi ijodkorni faqat his-tuyg'uga berilib, real hayot talablaridan uzoqlashib ketishga yoki umuminsoniy axloq talablaridan uzoqlashib ketishga yoki umuminsoniy axloq talablaridan chetga chiqishga yo'l qo'ymaydi... Xullas, his va aql dialektikasi o'ta murakkab va serqirra bo'lib, badiiylik muammolarini hal etganda ularning o'zaro nisbatini hisobga olish zarur» [3, 79].

O'ziga xos badiiy ifoda tarziga ega bo'lib, she'riyatimizda mavjud an'analarga yangicha ruh berib kelayotgan shoira Guljamol Asqarova ijodi ham alohida e'tiborga molik.. Zero, uning she'rlarida hayotga, inson umri va uning mohiyatiga bo'lgan munosabatning badiiy talqini o'quvchini chuqur mulohazaga

undaydi. Bu borada shoiraning mumtoz she'riyatga xos bo'lgan munojot shaklida yozgan she'rlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Lirikada munojot yaratilishi borasida adabiyotshunosligimizda bir qator ilmiy qarashlar mavjud. Xususan, adabiyotshunos olim S.Meli «Munojot» xususida quyidagicha mulohaza bildiradi: «Ilohiy sezgi tirik insonni hech qachon tark etmaydi. Chunki bu sezgi odamning qon-qonida, yaratilishida, fitratida mavjud. Odam, ta'bir joiz bo'lsa, shunday dasturlashtirilgan. Oliy dasturchi esa – Tangri taolo. Ollohsiz, ilohiy sezgisiz Inson – yorti, chala. Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan – «Munojot» ushbu yortilik, kemtiklikni to'ldirish, butunlik (komillik)ka erishish yo'lidagi shahd, ruhoniy tavalloning badiiy so'zdagi tasvir – ifodasi, mujassamidir. Y.E.Bertels yirik so'fiy shayx Abul Hasan Xaraqoniy hayotiga bag'ishlangan – «Nur al-ulum» («Ilmlar nuri») kitobi haqida, jumladan, shunday yozadi: «Beshinchi bob – dam qalbning Xudo bilan dialog (munojot) shaklidagi, dam monolog tarzidagi qisqa duolardan iborat». Demak, Bertels fikricha, munojot qalbning Xudo bilan dialogi, muloqotidir» [4, 86-87].

Tabiatan har qanday she'riy asarning vujudga kelishi dialogik tafakkur mahsuli sanaladi. Negaki, shoir muayyan bir hodisa yoki mavzu haqida o'z qalbi yoki qandaydir tabiat hodisasi, qonuniyati bilan g'oyibona muloqot qiladi. Mavjud jarayon yoki hodisaga savol bilan murojaat qiladi, u bo'lib javob beradi.

G.Asqarovaning «Erkalik imtiyozi» she'riy to'plamidagi «Munojot»da shoiraning Yaratganga nola-yu iltijosi, shukronaligi shunday tasvirlanadi:

Ming yil tuzganimni barbod aylarsan,

Ming yil buzganimni obod aylarsan.

Qandoq, qiyomat bu qonlar buzildi,

Har lahza aylarsan, bot-bot aylarsan.

Goh meni g'am bilan mustarin aylab,

G'anim-u kaslarni dilshod aylarsan [5, 135].

Ko‘rinadiki, lirik qahramon insoniyat nomidan Yaratganga iltijo qiladi. Zero, «Ming yil tuzganim», «Ming yil buzganim» – bu alohida inson shaxsiga xoslik emas. Ya’ni, insonning Yaratgan izmidan farqli ravishda o‘zi xohlagancha tuzganlari bardod bo‘ladi. Inson barbod etgan narsalar Ollohning inoyati bilan obod bo‘ladi. Keyingi satrlarda odamzod hayotidagi nopokliklar davomiyligidan hayratga tushish ifodalanadi. Shuningdek, insonning g‘amga botishidan uning g‘animlari shodlanishi ham asosli. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, she’rdagi «Ming yil tuzganimni barbod aylarsan, Ming yil buzganimni obod aylarsan» misralari Alisher Navoiyning «Sab’ai sayyor» dostonida Bahrom tarixiga bag‘ishlangan XI bobida berilgan («U (Yazdajurd) nimani buzgan bo‘lsa, bu (Bahrom) hammasini tuzdi») mazmunidagi tardu aks san’ati qo‘llangan quyidagi bayt bilan hamohanglik kasb etadi:

Har ne ul buzdi, bu borin tuzdi,

Bu borin tuzdi, har ne ul buzdi. [6, 72].

Hayot qonuniyatlari va insoniyat tarixidan anglashiladiki, xohlaymizmi, yo‘qmi ijtimoiy voqelikda yovuzlik va illatlar ko‘plab uchraydi. Ularni haqqoniy tasvirlash uchun ijodkor dunyoning fojeiy ruhini teran tushunishi va tushuntira olishi lozim. Munojotda tasvirning ishonarli tomoni hayotiy muhit va insoniyatning axloqiy oqibatidir. Negaki, inson har doim iqtidorini to‘g‘ri yo‘nalishga sola olsagina kamolotga erishadi, aksincha bo‘lsa, o‘zligi va imonini yo‘qotadi. She’rdagi fojeiy holat va ohang orqali G.Asqarova hayotning shafqatsizligi oldida kishilarni tushkunlikka tushmaslikka da’vat qilayotgandek.

«Munojot»ning keyingi satrlarida lirik qahramonning shukronaligi, inson (ayol) zoti bo‘lib yaratilganligi, nasl-nasab davomiyligi, insonning bu hayotga bandi ekanligi kabi masalalar badiiy talqin etilgan holda o‘quvchini o‘z umri va uning mazmun-mohiyati xususida chuqurroq mulohaza yuritishga undaydi:

Shukurkim, xonimlar qavmiga qo‘shding,

Axir ne bandangni bezot aylarsan.

To bunyod bo‘ldimki zanjir to‘qiyman,

Qachon bu qullikdan ozod aylarsan.

Umidlar etarg‘a izn ber, Tangrim,

Ming dod etganimda bir yod aylarsan. [5, 135-136].

«Munojot» matnida butun koinot, odam va olamni qamray oladigan ulkan uchlik – Men, Sen, U yetakchi struktur unsurdir. Uning asardagi tartibi shunday: Sen, U, Men. Bunda Sen – Qodir Olloh, U – Ollohning sevikli payg‘ambari Muhammad sallallohu alayhi va sallam. «Munojot» shunday favqulodda o‘ziga xos asarki, unda an’anaviy «Hamd» va «Na’t»lar yangicha ahamiyat kasb etadi, jonli struktur uzvga aylanadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, go‘yo qayta tirilib, ohorlanib, yangicha tarovat namoyish qila boshlaydi» [4, 87].

Shunday ekan, G.Asqarova ijodida yuqoridagi ta’riflangan xususiyatlarni kuzatish mumkin. Xususan, «Sochimga oq tushdi» deb boshlanuvchi she’rida shunday munojot qilinadi:

Sochimga oq tushdi

Yuzimga ajin

Ko‘nglim hech joyiga tushmadi...

Qoshimni qaro qilding

Ko‘zimni qaro

Manglayimni qaro qilma

Xudoyo! [5, 267].

«Ma’lumki, munojot ruhidagi asarlar, asosan, umr poyonida o‘tgan kunlar sarhisob qilinib, qilingan gunohlar, behuda o‘tgan hayot uchun Yaratgandan afv so‘rash ruhida yaratiladi» [7, 27]. ^{Shu ma’noda, mazkur munojotda ifoda qilingan insonning keksalikka yetganda ham} ko‘ngli joyiga tushmasligi asosli. Negaki, odam o‘tgan umri mohiyatini sarhisob qiladi, oxiratini o‘ylaydi, yashashdan umid uzmaydi.

G.Asqarova ijodida munojotlardan farqli ravishda muloqot shaklidagi she'rlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda Yaratgan bilan g'oyibona kechgan muloqot tafsilotlarining bayoni talqin etiladi.

«Tangrim, dedim, har neniki ijobat et!»

Tangrim aytdi: «Har ne aytsam itoat et!»

Mangu obod bo'lay desang oyoqqa tur,

Daraxtlardek kecha-kunduz ibodat et!».

Yo Rabbimo, tilovatni xato qilma,

Sado keldi: «Salovatni xato qilma!»

Ko'nglinga bir nurlar tushdi: manam pokman!

Tangrim, shu bir halovatni xato qilma! [5, 107].

Inson aksariyat hollarda o'z iroda va istagi, nafs quliga aylanadi. Hayotiy a'moli yaxshi-yomonini anglamasdan Yaratgandan madad so'raydi («Har neniki ijobat et!»). Shuning uchun ham muloqot jarayonidagi ilohiy sado («Har ne aytsam itoat et!») butun insoniyatni ezgulikka yetaklovchi asosiy omil ekani anglashiladi. Lirik qahramonning «Tangrim, shu bir halovatni xato qilma!» – deya qilayotgan iltijosida insonning foniy va boqiy dunyodagi halovati anglashiladi. Zero, ikki dunyoning ham mangu obodligiga Olloh taolo va bandasi irodasining mutanosibliги orqali erishiladi. Negaki, inson ko'nglidagi niyat, iroda Tangri irodasidan dilga ko'chgan bir zarra.

Adabiyotshunos D.Quronov ta'kidlaganidek, «Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appellativ maqsadlarni ko'zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro'yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo'lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik

umumiylilik bo‘lishi tabiiy. Inchunun, adabiy asar strukturasi gap qurilishi model (konstruksiya)lariga tayangan holda tushunish va tushuntirish mumkin bo‘ladi» [8, 58]. Ushbu mulohaza alohida e‘tiborga molik. Yuqoridagi she‘r misolida yondashsak, birinchidan, ijodkor tasvir, tahlil va talqin imkoniyatlarini badiiy maqsadga yo‘naltiradi, ikkinchidan, tasavvur va ta‘sir bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar sanaladi, uchinchidan, grammatik tarkib va badiiy nutq tafovuti tipologik mushtaraklik hosil qiladi, to‘rtinchidan, matn konstruktleri muloqot jarayoni izchilligini ta‘minlaydi. Shu ma‘noda, dialogik aloqadorlik she‘riy muhokamaning o‘ziga xosligini tayin etadi.

G.Asqarovning «Savol-javob» deb nomlangan she‘ri atigi 3 satr, 4 so‘zdan iborat bo‘lib, unda insonning hayoti, uning asl mohiyati muloqot shaklida aniq hamda teran mulohazali asosda talqin etilgan.

Qaerga

Ketyapman? – dedim

Xudoga!!! [5, 267].

She‘r mohiyatida inson ibtidosi hamda intihosi xususidagi munozara mujassamlashgan bo‘lib, unda shakl va mazmun mutanosibligi alohida e‘tirofqa molik. Hayot, uning mazmun-mohiyati haqidagi abadiy o‘ylar (jumboq) she‘rning asosiy falsafasini belgilagan. Ma‘lumki, shoirlik qismati aslida dard iskanjasidan iborat. Zero, odamzod taqdiri ma‘naviy kamolotga daxldorlik kasb etsa-da, unga eltadigan yo‘llar ziddiyat va murakkabliklarga to‘la. Biroq yovuzlikka qarshi buyuk bir qudrat mavjud, bu – ezgulik! She‘rdagi to‘rt so‘z joriy haqiqatni yana bir bor tasdiqlagan.

Mazkur she‘rda lirik qahramon kechinmasi va ilohiy muloqoti aniq va ravshan aks ettirilgan. Zero, Rahimjon Rahmat ta‘biri bilan aytganda «She‘riyatda inson yuragining sir-asrorlari aks etadi. Inson yuragining sirli tomoni shundaki, u dunyoga avvalboshdanoq, zabt etilgan holda keladi. Shuning uchun non deb yig‘lamaydi u, obro‘ deb o‘kinmaydi. Yurak – g‘oyibdan kelib ichimizga o‘rnashgan elchi. U

alaloqibat o'sha g'oyibning irodasiga bo'ysunadi. She'riyat esa ichimizdagi elchilarning xos suhbatidir» [9, 33].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tahlil qilingan she'rlardagi dialog va ularning zamirida inson va jamiyat, shaxslararo ziddiyat shakllari bilan birga shaxsning o'zini-o'zi yengib o'tishi, fe'l-atvoridagi noqislik illatlarini anglab yetishi kabi ko'rinishlar ifoda qilinadi. Ijodkor o'z qalbini o'rtayotgan hissiyotlar bilan muloqotga kirishi orqali voqelikka munosabat bildirishi, ularni badiiy-estetik baholashi she'riyatimizdagi yetakchi tamoyillardan hisoblanadi. Ta'kdlash kerakki, «Har bir lirik janr badiiy ijod olamida o'zining g'oyaviy-badiiy vazifasi bilan tug'iladi. Aks holda janr xilma-xilligi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Odatda, she'r hayotiy zaruriyat, ma'naviy-ruhiy ehtiyojdan dunyoga keladi. Janr kategoriyasi ana shu ehtiyoj va zaruratning turli tarzda shakllanishi, shaklga munosib mazmun, mazmunga munosib shakl holda ko'rinishidir» [10, 204].

Umuman, she'riy ifodada muloqot shakllari tashqi monolog (muallif bayoniga singdirilgan mushohada va hissiyot), ichki mustaqil rivoya (qahramon ongida kechayotgan ruhiy jarayon), dialogik munosabatlar tizimi (subyektlararo aloqa izchilligi) yordamida gavdalanadi. Unda qahramon holatini goh nutqiy tarqoqlik vositasida, goh bilvosita shoir shaxsiyati orqali tasvirlash miqyoslari aniq seziladi. Lirik matnda tasavvur va taassurot uyg'unligini ta'minlash aslida uslubiy vositalar mavqeyiga bog'lanib, ifoda dinamizmi takomillashuvida monologlashgan dialog muhim o'rin egallaydi. She'riyat ko'ngil va ruh orasidagi ilohiy aloqani qayta tiklaydi. His, kechinma va tuyg'uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati faqat tahlil jarayonidagina muayyan salmoq kasb etadi. So'zning ichki mohiyatini esa talqinga moyillik belgilaydi. Nazmning tayanch nuqtasini muhokama ta'minlar ekan, uning mag'zini monologlashgan ongning dialogik ko'rinishi tayin etishi ayonlashadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Umurov H. Badiiy asar nazariyasi. – Samarqand: SamDU, 2002 nashri.
2. Ulug‘bek H. Eski dunyo va yangi men. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
4. Meli S. “Munojot” poetikasida qiyos. Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni (xalqaro ilmiy anjuman materiallari). – Navoiy, 2017. – B. 86-91.
5. Asqarova G. Erkalik imtiyozi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2012.
6. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. Sab’ai sayyor. – Toshkent: Fan, 1992.
7. Berdimuratova M. Muhammad Yusuf Rojii Xorazmiy ijodiy merosi. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2009.
8. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004.
9. Rahimjon R. Adabiyotdan chiqish. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
10. Haqqulov I. Ijod iqlimi. – Toshkent: Fan, 2009.